



АХОЛИ МОЛИЯВИЙ САВОДХОНЛИГИНИ ОШИРИШНИНГ ИҚТИСОДИЙ АҲАМИЯТИ.

Ilmiy rahbar.

Ibragimov G‘anijon G‘ayratovich

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Qo'shma ta'lim dasturlarini
muvofiglashtirish markazi boshlig'i-Innovatsion menejment kafedrasi*

dostenti Phd, g.ibragimov@tsue.uz

Muxtorov Bexruz Oybek og‘li

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Menejment fakulteti 3-kurs MNP-76 guruh talabasi
bexruzmuxtorov006@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada aholi moliyaviy savodxonligini oshirishning iqtisodiy taraqqiyotdagi o‘rni va ahamiyati, moliyaviy savodxonlikning oshishi aholining daromad va xarajatlarni boshqarish qobiliyatini kuchaytirishi, jamg‘arma va investitsiya imkoniyatining shakllanishiga xizmat qilishi tahlil qilinadi. Shu bilan birga moliyaviy savodsizlik sababli insonlar firibgarlar tuzog‘iga tushishi, qarzdorlik va moliyaviy nomutanosiblik muammolari va shu kabi holatlarni oldini olish uchun yechimlar taklif qilinadi. Shuningdek, moliyaviy savodxonlikni oshirish bo‘yicha ta’lim tizimi, davlat siyosati va raqamli texnologiyalarning o‘rni haqida so‘z boradi. Yakunda, moliyaviy savodxonlik darajasining o‘sishi davlatning uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishi va aholi turmush tarzini yaxshilashda muhim omil ekanligi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: moliyaviy savodxonlik, shaxsiy budget, aholi farovonligi, moliyaviy ta’lim, iqtisodiy rivojlanish.

**Kirish.**

Hozirgi kunda mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi ko'p jihatdan aholining moliyaviy savodxonlik darajasiga bevosita bog'liq hisoblanadi. Raqamli iqtisodiyotning kengayishi va zamonaviy moliyaviy xizmat turlarining ko'payishi sababli aholining moliyaviy savodxonlik darajasini oshirish dolzarb masalalardan biriga aylandi. Moliyaviy jihatdan savodli shaxs o'zining daromad va xarajatlarini rejalashtiradi, jamg'arma qiladi, kredit va investitsiya bo'yicha oqilona qarorlarni qabul qiladi. Qolaversa, aholining moliyaviy savodxonligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida Prezident qarori ham mavjud. PQ-3620 (2018) bu qaror moliyaviy savodxonlik bo'yicha O'zbekistondagi tizimli hujjatlardan biri hisoblanadi. Ushbu qarorda maktab va oliy ta'limda moliyaviy bilimlarni joriy etish, Markaziy bank, Moliya vazirligi va ta'lim tashkilotlari o'rtasida hamkorlik hamda aholi uchun maxsus o'quv resurslarini yaratish vazifsi yuklangan. Bu shuni ko'rsatadiki aholi moliyaviy savodxonligining yuksalishi jamiyatning umumiy iqtisodiy barqarorligiga, davlat budjeti barqarorligiga va iqtisodiyotning sifat jihatdan rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Hamda, bozor iqtisodiyoti jarayonlari tobora murakkablashib borayotgan tufayli har bir fuqaroning moliyaviy qarorlarni ongli ravishda qabul qilishi nafaqat o'zining, balki jamiyatning umumiy farovonligiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Malumki, so'nggi yillarda raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi, onlayn to'lov tizimlarining kengayishi, kredit bilan bog'liq faoliyatlarning o'sishi va firibgarlar tomonidan ishlab chiqarilgan platformalarining aholi ichida ommalashuvi aholining moliyaviy madaniyatini yanada oshirish zaruratini kuchaytirmoqda. Chunki moliyaviy savodxonligi past bo'lgan fuqarolar firibgarlik sxemalariga aldanish, keraksiz kredit yuklamalariga kirishib qolish yoki o'z moliyaviy salohiyatini to'liq namoyon eta olmaslik xavfiga duch keladi. Aksincha, moliyaviy jihatdan savodli aholi qatlamining kengayishi jamiyatda iqtisodiy faollikni oshiradi, milliy jamg'arma hajmini ko'paytiradi,



investitsiya muhitining yaxshilanishiga xizmat qiladi va iqtisodiyotda barqarorlikni ta'minlashga sabab bo'ladi.

Asosiy qism.

Moliyaviy savodxonlik zamonaviy iqtisodiyotning ajralmas qismiga aylangan bo'lib, u nafaqat aholini moliyaviy qarorlarni ongli ravishda qabul qilishiga, balki iqtisodiy jarayonlarga faol jalb qilinishi va iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Jahon banki va OECD (Economic Co-operation and Development) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, aholining moliyaviy savod darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarda iqtisodiy o'sish darajasi nisbatan yuqori bo'ladi, aholi o'z daromadlarini to'g'ri taqsimlaydi hamda barqaror xarid qobiliyatiga ega bo'ladi. Chunki bunday davlatlarda insonlar o'z daromadlarini oqilona boshqaradi, ortiqcha kredit olmaydi, jamg'aradi va daromadlaridan ma'lum qismini investitsiya qiladi. Bunday aholi jamiyatda "aqlli iste'molchilar" sinfini yaratadi. Bunday iste'molchilar oqilona xarid qilish qobiliyatiga ega bo'ladilar, narx-sifat nisbatini baholay oladi. Bu esa korxonalarni sifatli mahsulot ishlab chiqarishga undaydi va iqtisodiyotning samaradorligini oshiradi. Dunyoning eng taniqli moliyaviy savodxonlik tadqiqotchilaridan biri bo'lgan Lusardi va Olivia S. Mitchell quyidagi asosiy g'oyalarni takidlaydi: moliyaviy bilim darajasi past bo'lgan aholi qaror qabul qilishda ko'proq xatoga yo'l qo'yadi. Jamg'arish, daromadni oqilona boshqarish va kreditlardan oqilona foydalanish muhim ahamiyatga ega ekanligini aytib o'tadi. Klapper, Lusardi, van Oudheusden (World Bank, 2015): „Global Financial Literacy Survey“. Ushbu xalqaro tadqiqotchilar 140 mamlakatda o'tkazgan so'rovnoma asosida quyidagi xulosaga keldilar: Dunyo aholisining 1/3 ya'ni 33% moliyaviy savodga ega deb topishdi. Moliyaviy savodxonlik darajasi yuqori davlatlarda bank tizimiga bo'lgan ishonch, investitsiya hajmi va jamg'arma qilish yaxshi shakillanganligiga guvoh



bo'lishdi. Moliyaviy savodi yuqori bo'lgan aholi davlat iqtisodiyotiga tasiri kattaligi aniqlandi. Batafsil ma'lumot berganda, savodli aholi moliyaviy masalalarda qaror qabul qilish qobiliyati yuqori bo'lganligi uchun ular daromadlarini bir qismini jamg'arma shaklida yig'ishni azal ko'radilar. Bu jamg'armalar mamlakatdagi bank tizimiga deposit bo'lib qaytadi. Investitsiya fondlari oraqli iqtisodiyotga sarmoya bo'lib yo'naltiriladi. Natijada kapital oqimi kuchayadi va iqtisodiyotda o'sish kuzatiladi. Moliyaviy savodli fuqorolar moliyaviy ilovlardan, online to'lovlar, va investitsiya platformalaridan oqilona foydalanadi. Bu: raqamli xizmatlar bozorini kuchaytiradi va moliyaviy texnologiyalar rivojlanishini rag'batlantiradi. Shu tarzda, yuqori savodli aholi iqtisodiy diversifikatsiya va innovatsion o'sishga o'z hissasini qo'shadi. Moliyaviy savodga ega bo'lishning ijobiy taraflari aytib o'tildi lekin savod darjasi past bo'lish oqibatlari quyidagilardan iborat: Shaxs darajasida oqibatlari shuki odamlar kredit shartlarini to'g'ri tushunmaganligi oqibaatida yuqori foizli kreditlar yoki iste'mol kreditlarini olishadi, natijada esa foiz sababli qarzga kirib qolishadi. Tejamisiz va qo'shimcha jamg'armaning yo'qligi- favqulotda kasal bo'lish va ishsizlik oqibatida qarzga kirishadi. Turli xil foiz ulushini va'da qilivchi firibgarlar tuzog'iga ilinishadi ya'ni firibgarlar puli ko'paytirib berishni vada berib insonlardan pul olishadi va darhol aloqani uzishadi bunday holat insonlarni firibgarlar qurboniga aylanishga, ortiqcha stressni paydo bo'lishiga sababchi bo'ladi. Shuningdek, qo'shimcha ijtimoiy oqibatlari ham mavjud. Jinoiy faollik va noqonuniy daromad manbalari: insonlar pul topish uchun noqonuniy yo'llarga kirishi xavfi ortadi. Aholining tejab qo'yishi kamayganda jamg'arma hajmi kamayadi va iqtisodiy o'sishga salbiy ta'sir qiladi.

Moliyaviy savodga ega bo'lgan shaxs albatta shaxsiy budjetini oqilona boshqaradi. Umuman olganda shaxsiy budjet bu shaxsning ma'lum bir vaqt ichida kirimlar va chiqimlarni yozib, kuzatib borish va boshqarish hisoblanadi. Buning asosiy maqsadi pul oqimni rejalashtirish, tejash, qarzlarni nazorat qilish va maqsadlarga erishishdan iborat. Budjet tuzis bosqichi besh bosqichdan iborat: 1-



daromad to'plash , 2-majburiy xarajatlarni aniqlash, 3-ixtiyoriy xarajatlar, 4-jamg'arma va investitsiya uchun mablag' ajratish, 5-balansni tartibga solish. Budjet tuzoshda 50/30/20 qoidasi ham qo'l keladi. 50%- zarur xarajatlar uchun, 30% - ixtoyoriy xarajatlar, 20% -tejash.

Iqtisodiyot rivojlangan sari aholining moliyaviy bilimini oshirish bugungi kunda ko'plab davlatlar siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan. Chunki barqaror o'sish, raqamli to'lovlar to'lovlar tizimi va investitsiya muhitining rivojlanishi aholining moliyaviy madaniyatiga bevosita bog'liqdir. 2025-yilda Markaziy bank va Osiyo Taraqqiyot Banki hamkorligida moliyaviy inklyuziya va savodxonlik bo'yicha so'rov o'tkazildi. Tadqiqot 1200 respondentni qamrab olgan bo'lib, asosiy ko'rsatkichlar quyidagicha: Aholining 59% da bank hisobi mavjud, bu esa moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatining o'sishini ko'rsatadi — moliyaviy tizim bilan bog'liqlikning bir indikatori sifatida qaraladi. So'rovda respondentlarning yarmidan ko'pi moliyaviy ilovalarda parollardan to'g'ri foydalanmasligi yoki kartani yo'qotganda nima qilishni bilmasligini aytgan. Bu moliyaviy xavfsizlik bo'yicha bilimlar hali yetarli emasligini ko'rsatadi. Shu sababli oxirgi yillarda O'zbekistonda ham ushbu yo'nalishda tizimli islohotlar amalga oshirilib, aholining moliyaviy bilimlarini oshirish bo'yicha davlat, ta'lim muassasalari, bank sektori va nodavlat tashkilotlar hamkorligida keng qamrovli dasturlar joriy qilinmoqda. So'nggi yillarda O'zbekistonda Markaziy bank, Moliya vazirligi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan: Moliyaviy savodxonlikni oshirish bo'yicha milliy strategiya loyihalari, maktab va oliygohlarda moliyaviy bilim asoslarini o'qitish bo'yicha yangi standartlar, bank-moliya tizimi bo'yicha ma'lumotlarning ochiqligini ta'minlash tartiblari ishlab chiqildi. Aholiga qulay moliyaviy xizmatlar yo'lga qo'yildi. So'nggi yillarda banklar aholining moliyaviy bilimini oshirish maqsadida: maxsus mobil ilovalar, onlayn maslahat markazlari, video darslar, foydalanuvchilar uchun xavfsizlik bo'yicha qo'llanmalar yaratmoqda. Raqamli moliya bo'yicha islohotlar: Onlayn to'lovlar tizimini rivojlantirish bo'yicha.



Hozirda: Payme, Click, Xazna, Uzum Bank, kabi raqamli platformalar ommalashdi va davlat xizmatlari to'lovlari elektron shaklga o'tdi hamda shaxsiy moliyani kuzatish imkoniyatlari kengaydi. Raqamli to'lov tizimining kengayishi aholining moliyaviy texnologiyalar haqidagi tasavvurini oshirmoqda.

Xulosa

Aholining moliyaviy savodxonligini oshirish bugungi iqtisodiy rivojlanish jarayonlarining ajralmas qismiga aylandi. Chunki moliyaviy bilim va ko'nikmalarning yetarli bo'lishi shaxsning iqtisodiy barqarorligini ta'minlabgina qolmay, balki mamlakatning makroiqtisodiy ko'rsatkichlariga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Moliyaviy jihatdan savodli fuqarolar kredit va qarz majburiyatlarini ongli boshqaradi, jamg'arma qilish odatiga ega bo'ladi, investitsiya imkoniyatlaridan oqilona foydalanadi va firibgarlik xavflaridan himoyalana oladi. Bu esa iqtisodiyotda pul oqimining yuqori samaradorlik bilan harakatlanishiga, milliy jamg'arma darajasining oshishiga hamda moliya bozorining barqaror rivojlanishiga zamin yaratadi.

O'zbekiston sharoitida moliyaviy savodxonlikni oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar — ta'lim tizimida moliya asoslarini joriy etish, bank xizmatlarining shaffofligini kuchaytirish, raqamli to'lov tizimlarini kengaytirish, aholiga qulay axborot platformalarini yaratish — aholining moliyaviy madaniyatini shakllantirishda muhim omil bo'lmoqda. Ushbu islohotlar uzoq muddatda iqtisodiy faollikni oshiradi, barqaror o'sish sur'atlarini mustahkamlaydi, kambag'allikni qisqartirishga xizmat qiladi va moliya bozorida ishonch muhitini kuchaytiradi. Shunday qilib, moliyaviy savodxonlikni rivojlantirish jamiyat farovonligining asosiy tayanchi va zamonaviy iqtisodiy taraqqiyotning muhim qismi hisoblanadi.



Foydalanilgan manbalar:

1. Moliyaviy savodxonlik asoslari . O‘quv qo‘llanma/ T. S. Malikov;- „Iqtisod – Moliya“, 2021.
2. O‘zbekiston Respublikasi Bank xizmatlarini ommabopligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida : O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 23-mart PQ-3620-son Farmoni. Lex.uz
3. Lusardi, A., & Mitchell, O. S. (2014). The economic importance of financial literacy: Theory and evidence. *Journal of Economic Literature*, 52(1), 5–44.
4. OECD (2020). OECD/INFE International Survey of Adult Financial Literacy. Organisation for Economic Co-operation and Development.
5. Moliyaviy savodxonlik (Hamkorbank.uz)
6. Vaxobov A.V., Do‘smuhammedov O.S. Moliyaviy savodxonlik tushunchasining nazariy asoslarini takomillashtirish . //Iqtisod va moliya, 2022.
7. Huston, S. J. (2010). Measuring financial literacy. *Journal of Consumer Affairs*, 44(2), 296–316.